



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*musiqa fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yiliga 7-sinflar uchun*  
*I chorak*

# *DARS*

# *ISHLANMALARI*

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ \_\_\_\_\_

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan musiqa fanidan I chorak  
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
<b>I chorak</b>				
1.	Surxondaryo - Qashqadaryo musiqa uslubi haqida tushuncha	1		
2.	Buxoro - Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha	1		
3.	Sozanda san’ati	1		
4.	Farg‘ona- Toshkent musiqa uslubi haqida tushuncha	1		
5.	Katta ashula va yallachilik san’ati	1		
6.	Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha	1		
7.	Xorazm dostonchilik an’analari	1		
8.	<b>Nazorat ishi – 1</b>	1		
9.	Xorazm ashulachilik san’ati	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

## Mavzu: Surxandaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi haqida tushuncha

### Darsning maqsadi:

**Ta'limiy:** o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatish

**Vazifalar:-** Musiqa madaniyati o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;

### O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

#### O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish; o'zining qiziqishlariga ko'ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

#### Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o'sish sur'atlarini bilish, Shashmaqom tarkibidagi maqomlar sonini bilish.

**Uslub:** "Aql charhi" o'yini, "Topqirlik" mashqlari, hikoya, suhbat, savol-javob, "Klaster",

**Shakl:** Suhbat-munozara, guruhlarda va jamoada ishlash.

**Vosita:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar, notalar yoki audio yozuvlari, fortepiano cholg'u asbobi, rag'batlantiruvchi kartochkalar.

**Usul:** Tayyor yozma materiallar.

**Nazorat:** Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.

**Kutiladigan natijalar:** mavzuni berilgan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish. O'quvchilar faolligini oshirish. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish o'yg'otish. Dars jarayonida ko'proq o'quvchini baholashga erishish. Savol-javoblarga qatnashib, mustaqil fikrlashga o'rgatish. O'quvchi musiqa haqida bilimlar egallaydi, yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi, nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va baholay oladi.

### Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi deganda, asrlar davomida shakllangan mehnat aytimlari, mavsumiy marosim qo‘shiqlari, cho‘ponlar ijodi, baxshilar san’ati va xalq ijodiga oid yana ko‘plab aytim va cholg‘u kuylari tushuniladi. Shuni ham aytish kerakki, musiqiy an’analarining kelib chiqish negizlari qadimiy davrlarga taalluqli bo‘lib, ular turli vaziyatlarda, xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq turfa ko‘rinishlarda, xususan, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o‘tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayil va tantanalarda yuzaga keladi.

Surxondaryo – Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik mehnati bilan shug‘ullanib keladi. Shu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog‘liq aytim va cho‘pon kuylari juda ko‘plab ijod etilgan. Dastlab iste’dodli shaxslar tomonidan (yakka yoki jamoa ishtirokida) aytilib, so‘ngra el orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib ommalashgan mehnat qo‘shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajribasi faoliyatida saqlanib kelindi. Bundan tashqari, mavsumiy marosim, ommaviy bayram va xalq sayillari (“Navro‘z bayrami”, “Lola sayli”) qo‘shiqlari hamda qarsak-o‘yin aytimlari va yana ko‘plab ommaviy qo‘shiq-kuylari o‘tmishdan bizning davrimizga meros bo‘lib qoldi.

Musiqiy merosning ulkan qismi bo‘lgan dostonlarni baxshilar o‘z xotiralari va ijodlarida saqlab, ijro etib kelmoqdalar.

Shuningdek, Surxondaryo – Qashqadaryo an’anaviy cholg‘ulari qatorida do‘mbira, qo‘biz, cho‘pon nay, sibiziq, changqobuz va doiralar uzoq o‘tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, ularda turfa kuylar ijro etib kelinmoqda.

#### **IV. O‘tilgan mavzuni takrorlash mustahkamlash:**

“Aql charhi” o‘yini, “Topqirlik” mashqlari yordamida takrorlanib, mustahkamlanadi.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, qo‘shiqni yod olish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

## **Mavzu: Buxoro-Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha**

### **Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafasat va badiiy didini o'stirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatish

**Vazifalar:-** Musiqa madaniyati o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a'zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to'g'ri qabul qilish, turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtirolarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish. Internet-saytlardan musiqaga oid ma'lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish.

**Uslub:** "Aql charhi" o'yini, "Topqirlik" mashqlari, hikoya, suhbat, savol-javob, "Klaster",

**Shakl:** Suhbat-munozara, guruhlarda va jamoada ishlash.

**Vosita:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar, notalar yoki audio yozuvlari, fortepiano cholg'u asbobi, rag'batlantiruvchi kartochkalar.

**Usul:** Tayyor yozma materiallar.

**Nazorat:** Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.

**Kutiladigan natijalar:** mavzuni berilgan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish. O'quvchilar faolligini oshirish. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish o'yg'otish. Dars jarayonida ko'proq o'quvchini baholashga erishish. Savol-javoblarga qatnashib, mustaqil fikrlashga o'rgatish. O'quvchi musiqa haqida bilimlar egallaydi, yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi, nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va baholay oladi.

### **Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		45 daqiqa

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Buxoro – Samarqand musiqa uslubi deganda, Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an’analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo‘lmish bu vohalarda xalq qo‘shiqlari, ashulalari, cholg‘u kuylari, qarsak o‘yin – aytimlari hamda kasbiy musiqaqa doir dostonchilik, sozanda san’ati va maqom namunalari keng o‘rin tutadi.

Mazkur uslubning o‘ziga xos jihatlaridan biri – ikki tillilik, ya’ni o‘zbek va tojik tillari an’anasining namoyon



bo‘lishidir. Bu holat ushbu sarhadda yashab, faoliyat ko‘rsatgan ko‘pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrati Zardo‘zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattaqo‘rg‘oniylar ijodida, shuningdek, ikki tilda ijro etib kelinayotgan o‘zbek va tojik xalqlarining yuksak mumtoz musiqa namunasi bo‘lgan Shashmaqom (Buxoro maqomlari) turkumida o‘z aksini topgan.

Ikki tillilik an’anasi xalq musiqasida o‘zgacha shakllarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo‘shiqlarini ayni vaqtning o‘zida ham o‘zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda, qo‘shiqning bandlari o‘zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba’zan aksincha ham bo‘ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo‘shiqlarini o‘zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoni mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda – yo o‘zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo‘shiqlari ham uchraydi.

#### **IV. O‘tilgan mavzuni takrorlash mustahkamlash:**

“Aql charhi” o‘yini, “Topqirlik” mashqlari yordamida takrorlanib, mustahkamlanadi.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, qo‘shiqni yod olish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## *Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**19 listdan iborat musiqa fanidan  
7-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun  
telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!  
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**